

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA MOSLASHISH DAVRIDA BOLALARNI QO'LLAB – QUVVATLASH

Mirzayeva Mohichehra Mirolimjon qizi

Qo'qon universiteti Ta'lim fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20425234>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy-psixologik moslashish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Bolaning oila muhitidan yangi ijtimoiy guruhga o'tishida yuzaga keladigan qiyinchiliklar va bu davrda pedagog hamda ota-onalarning o'zaro hamkorligi, bolani qo'llab-quvvatlashning pedagogik tizimi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, adaptatsiya, ijtimoiy muhit, pedagogik qo'llab-quvvatlash, individual xususiyatlar, pedagogik hamkorlik, didaktik o'yinlar.

Bolani to'laqonli tarbiyalash, uni rivojlantirish va kattalikka tayyorlash uchun uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti komil inson tarbiyasida alohida ahamiyatli. Shunday qilib bolani oila davrasidan endi bog'cha muhitiga, yangi sharoitga moslashtirish jarayoni bola hayotida tub burilish yasaydi. Moslashish har bir bolada individual tarzda turlicha kechadi. Chunki xar bir bolaning o'ziga xos xulq atvori va xususiyatlari mavjud. Qolaversa yangi muhitga moslashish bolalarning o'zi o'rganib qolagan oilaviy muhitida necha kishi bo'lgani va ular bilan munosabatlari qay tarzda shakllanganligi bilan ham bog'liq. Demak bog'chada bola tengdoshlari va kattalar orasida keng doirada muloqot qilishni o'rganadi, mustaqillik va tashkilotchilik qobiliyatlari shakllantirilib boriladi. Turli amaliy faoliyatlarga (o'yin, o'rganish, kognitiv) ko'nikmalarini rivojlantiradi.[1]

Maktabgacha yoshdagi bolalar ilk bor oilaviy muhitdan tashqariga, yangi sotsial muhitga kirib borar ekan, ular psixologik va jismoniy jihatdan o'zgarishlarga duch keladilar. Agar moslashuv jarayoni samarali kechsa, bola bog'chada o'zini xotirjam his etadi, tengdoshlar bilan ijtimoiylashadi va ta'lim dasturlarini yaxshi o'zlashtiradi. Shu sababli bolani maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitiga moslashtirish masalasi ilmiy-pedagogik va davlat siyosati darajasida dolzarb sanaladi.[2]

Maktabgacha ta'lim tashkilotiga ilk bor kelgan bola uchun yangi muhitga moslashish jarayoni emotsional jihatdan murakkab hisoblanadi. Chunki bola avval faqat oila a'zolari bilan muloqot qilgan bo'lsa, endilikda yangi kattalar va tengdoshlari bilan munosabat o'rnatishga majbur bo'ladi. Bu esa ayrim bolalarda stress, qo'rquv yoki tortinchoqlik holatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli adaptatsiya davrida bolaning ruhiy holatini nazorat qilish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Bog'chada bola tengdoshlari va kattalar orasida keng doirada muloqot qilishni o'rganadi, unda mustaqillik va tashkilotchilik qobiliyatlari shakllantirilib boriladi. Turli amaliy faoliyatlar — o'yinlar, kognitiv va ijodiy mashg'ulotlar orqali bolaning ijtimoiy ko'nikmalari rivojlanadi. Agar moslashuv jarayoni to'g'ri tashkil etilsa va samarali kechsa, bola bog'chada o'zini xotirjam his etadi, tengdoshlari bilan ijtimoiylashadi va ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli o'zlashtiradi.[3]

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda moslashuv davrini yengillashtirish uchun o'yin texnologiyalari, art-terapiya, musiqali faoliyat hamda kommunikativ mashqlardan keng foydalaniladi. Pedagog tomonidan tashkil etilgan iliq psixologik muhit esa bolada xavfsizlik hissini yuzaga keltirib, uning bog'chaga bo'lgan ijobiy munosabatini rivojlantiradi. Moslashuv davrida

didaktik o'yinlar, ertak terapiyasi va jamoaviy faoliyatlardan foydalanish samarali natija beradi. Shu sababli tarbiyachi mashg'ulotlarni qiziqarli metodlar asosida tashkil qilishi zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitiga moslashishi faqatgina ularning xulq-atvorida emas, balki butun organizmining barcha tizimlarida namoyon bo'ladigan murakkab ijtimoiy-psixologik jarayondir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda moslashuv jarayonining muvaffaqiyatli kechishi ko'p jihatdan tarbiyachining kasbiy mahoratiga bog'liqdir. Tarbiyachi bolaning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olib, unga nisbatan mehribon va ehtiyotkor munosabatda bo'lishi lozim. Ayniqsa, ilk kunlarda bolaning emotsional holatini kuzatish, unda xavfsizlik hissini shakllantirish hamda ijobiy psixologik muhit yaratish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Bunday yondashuv bolada bog'chaga nisbatan ishonch va qiziqishning shakllanishiga yordam beradi.[4]

Ayrim bolalarda moslashuvning dastlabki kunlarida yig'lash, ota-onadan ajralishni istamaslik, tengdoshlari bilan muloqotga kirishmaslik kabi holatlar kuzatiladi. Bunday vaziyatlarda pedagog tomonidan individual yondashuvning qo'llanilishi, bolaga ruhiy dalda berilishi hamda ota-onalar bilan muntazam hamkorlik olib borilishi moslashuv jarayonining yengil kechishiga yordam beradi. Moslashuv jarayonida ota-onalarning pedagoglar bilan hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bolaning oiladagi kun tartibi, qiziqishlari va xarakter xususiyatlari haqida tarbiyachining ma'lumotga ega bo'lishi individual yondashuvni to'g'ri tashkil qilish imkonini beradi. Pedagog va ota-ona o'rtasidagi muntazam muloqot bolaning ruhiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashuvi murakkab, ammo muhim pedagogik jarayondir. Ushbu davrda tarbiyachi, ota-ona va pedagogik muhitning o'zaro hamkorligi bolaning ruhiy barqarorligi hamda ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Moslashuv jarayonining to'g'ri tashkil etilishi kelajakda bolaning ta'limga bo'lgan qiziqishi, mustaqilligi va ijtimoiy faolligining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu davrda pedagoglarning kasbiy mahorati, ota-onalar bilan hamkorlik va qulay ijtimoiy muhitning yaratilishi bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlaydi. Shuningdek, didaktik o'yinlar va innovatsion metodlardan foydalanish adaptatsiya jarayonining samaradorligini oshiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS. Ibragimova Odina
2. International scientific journal. «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» Ro'ziqulova Shaxinabonu 2025-yil
3. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Shonazarova Nasiba 2023-yil
4. Pedagogik mahorat ilmiy jurnali. 2025-yil 3-son